



“MAHALLA VA OILA” ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI

---

# IJTIMOIY BOSHQARUV

e l e k t r o n   i l m i y   j u r n a l

1/2022

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

## **TAHRIR HAY'ATI RAISI:**

**EGAMBERDIYEVA Nodira Melibayevna** (Bosh muharrir) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

## **TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:**

**NARBAYEVA Tanzila Kamalovna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSURMANOVA Aynisa Musurmanovna** (Bosh muharrir o'rinosbosari) – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**ABDURAMANOV Xamid Xudaybergenovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

**BEGIMQULOV Uzoqboy Shoimkulovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**FARFIYEV Bahromjon Atxamjanovich** – *sotsiologiya fanlari doktori, dotsent.*

**ISHQUVATOV Valiqul Turdiyevich** – *tarix fanlari doktori, professor.*

**KARAMYAN Marietta Xachaturovna** – *psixologiya fanlari doktori, professor.*

**MUSLIMOV Narzulla Alixanovich** – *pedagogika fanlari doktori, professor.*

**NURMATOVA Mukharram Axmedovna** – *falsafa fanlari doktori, professor.*

**NARMATOV Nuriddin Soatmuradovich** – *yuridik fanlari doktori, professor.*

**RAHMANQULOVA Nilufar Xodji-Akbarovna** – *yuridik fanlari doktori, dotsent.*

**SAYDIVALIYEVA Xurshida Xodjiakbarovna** – *yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).*

**SODIQOVA Shohida Marhobayevna** – *sotsiologiya fanlari doktori, professor.*

**ZOHIDOV Azamatjon A'zamovich** – *iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

## **ПРЕДСЕДАТЕЛЬ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Эгамбердиева Нодира Мелибаевна** (*Главный редактор*) – доктор педагогических наук, профессор.

## **ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:**

**Нарбаева Танзила Камаловна** – доктор социологических наук, профессор.

**Мусурманова Айниса Мусурмановна** (*Заместитель главного редактора*) – доктор педагогических наук, профессор.

**Абдураманов Хамид Худайбергенович** – доктор экономических наук, профессор.

**Бегимкулов Узокбай Шоимкулович** – доктор педагогических наук, профессор.

**Фарфиев Баҳромжон Атҳамдановиҷ** – доктор социологических наук, доцент.

**Ишқуватов Валикул Турдиевиҷ** – доктор исторических наук, профессор.

**Карамян Мариэтта Ҳачатуровна** – доктор психологических наук, профессор.

**Муслимов Нарзулла Алиханович** – доктор педагогических наук, профессор.

**Нурматова Мукхаррам Ахмедовна** – доктор философских наук, профессор.

**Нарматов Нуриддин Соатмурадович** – доктор юридических наук, профессор.

**Рахманкулова Нилуфар Ҳоджи-Ақбаровна** – доктор юридических наук, доцент.

**Сайдивалиева Ҳуршида Ҳоджиакбаровна** – доктор философии юридических наук (PhD).

**Содикова Шоҳида Мархобаевна** – доктор социологических наук, профессор.

**Зоҳидов Азаматжон Азамович** – доктор экономических наук, профессор.

## **THE CHAIRMAN OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna** (*Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

## **MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:**

**Narbayeva Tanzila Kamalovna** – *Doctor of Sociological sciences, Professor.*

**Musurmanova Aynisa Musurmanovna** (*Deputy Editor-in-Chief*) – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Abduramanov Khamid Khudaybergenovich** – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

**Begimkulov Uzokboy Shoimkulovich** – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Farfiyev Bakromjon Atxamjanovich** – *Doctor of Sociological Sciences, Associate Professor.*

**Ishkuvatom Valikhul Turdiyevich** – *Doctor of Historical Sciences, Professor.*

**Karamyan Marietta Khachaturovna** – *Doctor of Psychological Sciences, Professor.*

**Muslimov Narzulla Alixhanovich** – *Doctor of Pedagogical Sciences, Professor.*

**Nurmatova Mukharram Akhmedovna** – *Doctor of Philosophical Sciences, Professor.*

**Narmatov Nuriddin Soatmuradovich** – *Doctor of Law Sciences, Professor.*

**Rakhmankulova Nilufar Khodji-Akbarovna** – *Doctor of Law Sciences, Assistant Professor.*

**Saydivaliyeva Khurshida Khodjiakbarovna** – *Doctor of Philosophy in Law (PhD).*

**Sodikova Shohida Markhobayevna** – *Doctor of Sociological Sciences, Professor.*

**Zokhidov Azamatjon Azamovich** – *Doctor of Economic Sciences, Professor.*

*MAHALLA VA MENEJMENT*

<b>Egamberdiyeva N.M., Xonturayev B.</b> Ta’lim va ilm-fan sohalarida xotin-qizlar rolini yanada oshirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy tajriba .....	4
<b>Abduramanov X., Zokirov Sh.</b> Xotin-qizlar o‘rtasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha xorij tajribasi .....	15
<b>Xoliqova M.</b> Ijtimoiy boshqaruv kontekstida rahbarning korporativ kompetensiyalar matritsasi .....	29
<b>Norqulov H.D., Jumanov Sh.S.</b> Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari tomonidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish shakllari .....	40
<b>Sodiqov F.F.</b> Janubiy Koreya Respublikasida mahalliy hokimiyat boshqaruvi .....	55

*OILA VA JAMIYAT*

<b>Yulchiyeva D.X.</b> Oilada barqaror muhitni ta’minlashda milliy hunarmandchilikning o‘rni.....	61
<b>Бабаджанова Н.</b> Закономерности функционирования семьи как системы .....	71
<b>Kholikulova Kh.Yu.</b> Political transformations in Uzbekistan in the field of social protection of disabled people .....	81
<b>Mambetjanov Q.Q., Ibragimov L.Z.</b> Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish mexanizmlari.....	90
<b>Arabov N.U., Nasimov D.A.</b> Xotin-qizlar kompetensiyasini shakllantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish .....	98

*XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI*

<b>Bayjonov F.B.</b> Gender madaniyat tushunchasini ijtimoiy hodisa sifatida o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish .....	104
---	-----

*IJTIMOY PSIXOLOGIYA*

<b>Nurmatov A.N.</b> Psychological impact of professional identification of medical staff on the spiritual and moral environment of the family and community.....	108
<b>Narmetova Y.K.</b> Sog‘liqni saqlash tizimida psixologik xizmatni tashkil etishning ijtimoiy-psixologik asoslari .....	117
<b>Avezova D.G.</b> Autizm sindromli bolalarda kognitiv jarayonlar buzilishlarining psixologik omillari .....	126



**Egamberdiyeva Nodira Melibayevna,**  
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti direktori,  
pedagogika fanlari doktori, professor



**Xonturayev Bobur,**  
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti  
“Oilani demografik rivojlantirish” bo‘limi boshlig‘i

# TA’LIM VA ILM-FAN SOHALARIDA XOTIN-QIZLAR ROLINI YANADA OSHIRISH BO‘YICHA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBA

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xotin-qizlarning ta’lim va ilm-fan sohalaridagi faoliyati tahlil qilingan, xorijiy mamlakatlarning ta’lim va ilm-fan sohalarida xotin-qizlarning rolini oshirish bo‘yicha tajribalari o‘rganilgan hamda ulardagi ilg‘or tajribalarni mamlakatimizga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Аннотация.** В данной статье проанализирована деятельность женщин в сфере образования и науки, изучен опыт зарубежных стран по повышению роли женщин в сфере образования и науки, а также разработаны научные предложения и практические рекомендации по внедрению передового опыта в нашей стране.

**Annotation.** This article analyzes the activities of women in the field of education and science, studies the experience of foreign countries in enhancing the role of women in the field of education and science, and develops scientific proposals and practical recommendations for the implementation of best practices in our country.

**Tayanch tushunchalar:** xotin-qizlar, ta'lim, ilm-fan, bilim va ko'nikmalar, ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlari, elektron navigator platformalari, vaucher, ijtimoiy lift, jamiyat, xorijiy davlatlar tajribasi.

**Ключевые слова:** женщины, образование, наука, знания и навыки, научно-исследовательские и опытно-конструкторские работы, электронные навигаторные платформы, ваучеры, социальный лифт, общество, опыт зарубежных стран.

**Keywords:** women, education, science, knowledge and skills, research and development work, electronic navigation platforms, vouchers, social lift, society, experience of foreign countries.

**Kirish.** Bugungi kunda mamlakat akademik doiralarida ayollarning o'rni va mavqeyini oshirish, yangi avlod olima xotin-qizlarni tarbiyalash hamda istiqbolli loyihalarni rag'batlantirish bo'yicha muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Jamiyat hayotining turli jabhalarida gender tenglikni ta'minlash, jumladan, ta'lim va ilm-fan sohasida O'zbekiston ichki siyosiy konsepsiyasining ustuvor yo'naliishlari qatoriga kiradi.

Bu borada 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi **69-maqсадида:** *xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish* vazifasi belgilab qo'yilgan<sup>1</sup>.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zining "**Yangi O'zbekiston strategiyasi**" nomli asarida "*Bugun O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi ayollarimizga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatishni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va maqomini mustahkamlash ularning huquq va manfaatlarini ta'minlashdir. Bu o'z navbatida, Ayollarga ilm berish – jamiyatni ilmli, ma'rifatli va salohiyatli qilish degan aqidani hayotga izchil tatbiq etish*"<sup>2</sup> kerakligini alohida ta'kidlab o'tganlar.

Ma'lumki, 2016-yil yildan boshlab, har yili 11-fevral kuni BMT qaroriga binoan "**Xalqaro ilmda ayollar va qizlar kuni**" sifatida nishonlanadi. Bundan ko'zlangan maqsad xotin-qizlarning ta'lim olishiga qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratish, ilm-fandagi salohiyatiga e'tibor qaratish va qo'llab-quvvatlashdan iborat hisoblanadi. Shu bois xalqaro va xorijiy tajribani o'rganish maqsadida 10 dan ortiq xorijiy mamlakatlarda

**"Bugun  
O'zbekistonda  
olib borilayotgan  
davlat siyosatining  
asosiy maqsadi  
ayollarimizga  
e'tibor va amaliy  
g'amxo'rlik  
ko'rsatishni yangi,  
yuksak bosqichga  
olib chiqish,  
xotin-qizlarning  
jamiyatdagi o'rni  
va maqomini  
mustahkamlash  
ularning huquq  
va manfaatlarini  
ta'minlashdir.  
Bu o'z navbatida,  
Ayollarga ilm  
berish – jamiyatni  
ilmli, ma'rifatli va  
salohiyatli qilish  
degan aqidani  
hayotga izchil  
tatbiq etish"**

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 29 январь 2022 йилдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ти ПФ-60-сонли Фармони.

<sup>2</sup> Шавкат Мирзиёев. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. – 250 б.

xotin-qizlarning ta’limini rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or tajribalar tahlili amalga oshirildi.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Xotin-qizlarning ta’lim olishi, ilm-fan sohasida ayollarning o‘rnini yanada oshirish bo‘yicha nazariy va amaliy jihatlarini Gaskell Dj., Maklaren A.<sup>3</sup>, Aker S.<sup>4</sup>, Stromkvist N.P.<sup>5</sup>, Foks M.F.<sup>6</sup> va Xamdan A.<sup>7</sup> kabi xorijlik olimlar tadqiqotlar olib borishgan. MDH mamlakatlari olimlaridan Nogayeva A.M., Shupanova J.M.<sup>8</sup>, Agamova N.S., Allaxverdyan A.G.<sup>9</sup> va Shafranova O.I.<sup>10</sup> singari olimlarning ilmiy ishlarida ta’lim, ilm-fan sohasida ayollarning roli o‘z aksini topgan.

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.** Xotin-qizlarning ta’lim olishiga zarur shart-sharoitlarni yaratish, ilm-fan sohasida ayollarning tutgan o‘rnini yanada oshirish bo‘yicha O‘zbekistonidagi mavjud holat hamda ilg‘or xorijiy davlatlar tajribasini o‘rganish yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

**Birinchidan**, mamlakatimizda **bandlik muammolarini hal qilishda xotin-qizlarni o‘qitish va ularga ta’lim berishning salohiyatidan foydalanish samaradorligi pastligicha qolmoqda.**

O‘zbekiston boshlang‘ich ta’limda gender balansiga erishgan bo‘lsada, ammo hanuzgacha oliy ta’lim sohasida tahsil olayotgan, shuningdek, ilmiy tadqiqot yo‘nalishlaridagi ayollar va erkaklar soni o‘rtasida tavofut mavjud. O‘zbekistonda oliy o‘quv yurtiga 2020–2021-o‘quv yili kunduzgi ta’lim uchun kirgan xotin-qizlar 260 ming kishini, erkaklar 311,5 ming kishini tashkil etgan. Ushbu tavofutni **bir nechta sabablar keltirib chiqarmoqda**:

<sup>3</sup> Gaskell Jane, and Arlene McLaren. *Women and Education: A Canadian Perspective*. Detselig Enterprises, Ltd., PO Box G399, Calgary, Alberta T3A 2G3., 1987.

<sup>4</sup> Acker S. Special series on girls and women in education: Creating careers: Women teachers at work. Curriculum inquiry. 1992 Jun 1;22(2):141-63.

<sup>5</sup> Stromquist N.P. Women and education in Latin America. Lynne Rienner Publishers; 1992.

<sup>6</sup> Fox M.F. Women, science, and academia: Graduate education and careers. Gender & Society. 2001 Oct;15(5):654-66.

<sup>7</sup> Hamdan A. Women and education in Saudi Arabia: Challenges and achievements. International Education Journal. 2005 Mar;6(1):42-64.

<sup>8</sup> Ногаева Айнур Муханбетияровна, Жанна Мергенжановна Шупанова. «Роль женщин в сфере образования, науки и обществе стран Центральной Азии.» (2016).

<sup>9</sup> Агамова Н.С., Аллахвердян А.Г. Российские женщины в науке и высшей школе: историко-научные и научковедческие аспекты. Вопросы истории естествознания и техники. 2000(1):141-53.


<sup>10</sup> Шафранова О.И. Образование, общественная и профессиональная деятельность женщин Северного Кавказа во второй половине XIX-начале XX в. – Ставрополь: СГУ., – 2004.

## Mamlakatimizda bandlik muammolarini hal qilishda xotin-qizlarni o‘qitish va ularga ta’lim berishning salohiyatidan foydalanish samaradorligi pastligicha qolmoqda.

- xotin-qizlarning ta’lim yo‘nalishi ko‘pincha ota-onalar tomonidan belgilanishi;
- oilada oliy ta’lim olish imkoniyati, avvalo, o‘g‘il bolalarga berilishi (ayniqsa, to‘lov asosidagi o‘qish bo‘lsa);
- jamiyatda saqlanib qolgan stereotiplar tufayli qizlar faqat oilaviy hayotda asqtishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy kasblarni egallahsga intilishi;
- ota-onalar qizlarining uydan uzoqda ta’lim olishini istamasligi;
- hududlarda oliy ta’lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlarining bir xil joylashmaganligi;
- ayollarning erkaklarga nisbatan erta turmush qurishi, farzand ko‘rish hamda voyaga yetkazish vazifasi.

**UNESCO** tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo tadqiqotchilarining atigi **30 foizini** ayollar tashkil etadi. Universitetlarga kiradigan ayollar soni tobora ko‘payib borayotgan bo‘lsa-da, ularning kam qismi tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanishadi. Masalan, **Shvetsiyada** ayollar universitet talabalarining ko‘p qismini – **60 foizini** tashkil qiladi, ammo ularning soni universitetdan keyingi ta’lim bosqichlarida kama-yadi: aspirantlar orasida ayollar ulushi (49%), olimlar orasida atigi (36%).

**UNESCO**  
**tashkilotining**  
**ma’lumotlariga**  
**ko‘ra, dunyo**  
**tadqiqotchilarining**  
**atigi 30**  
**foizini ayollar**  
**tashkil etadi.**  
**Universitetlarga**  
**kiradigan**  
**ayollar soni**  
**tobora ko‘payib**  
**borayotgan bo‘lsa-**  
**da, ularning kam**  
**qismi tadqiqot**  
**faoliyati bilan**  
**shug‘ullanishadi.**




**1-rasm. Oliy ta’lim sohasida tahsil olayotgan ayollar va erkaklar soni o‘rtasidagi nisbat (o‘quv yili boshiga, ming kishi)<sup>11</sup>**

<sup>11</sup> <https://gender.stat.uz> asosida mualliflar tomonidan tahlil qilindi.

**Mamlakatimizda  
ilmiy tadqiqot  
va tajriba-  
konstrukturlik  
ishlarini  
bajarayotgan  
tadqiqotchi  
erkaklar va xotin-  
qizlar o'rtasida  
tafovut saqlanib  
qolayotganligi  
kuzatilmoqda.**

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ilm-fan sohasida ayollarning ulushi **Argentina** (54,1%), **Bolgariya** (47,4%), **Indoneziya** (45,8%) va **Portugaliya** (43,7%) kabi mamlakatlarda ustunlik qiladi<sup>12</sup>. Ushbu tendensiyaning barcha mintaqalarda kuzatilishi ilmiy martaba bilan oilaviy majburiyatlarni birlashtirmoqchi bo'lgan ayollar duch keladigan qiyin tanlov haqida o'ylashga majbur qiladi. Dunyo miqyosida olib qarasak, fan, texnika, texnologiya va matematika kabi sohalarda tadqiqotchi ayollar kamchilikni tashkil qiladi. Masalan, **Koreya Respublikasida** tadqiqotchilarning atigi 17 foizini, muhandislikda 9 foizni ayollar tashkil qiladi<sup>13</sup>.

**Ikkinchidan**, mamlakatimizda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini bajarayotgan tadqiqotchi erkaklar va xotin-qizlar o'rtasida tfovut saqlanib qolayotganligi kuzatilmoqda.



**2-rasm. Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini bajargan  
tadqiqotchi mutaxassislarning jinsi bo'yicha soni<sup>14</sup>**

Xususan, yurtimizda 2021-yilda ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlarini olib borgan xotin-qizlar **9 874** nafar, erkaklar

<sup>12</sup> <https://www.unesco.org/reports/science/2021/en/dataviz/women-share>

<sup>13</sup> <https://ru.unesco.org/>

<sup>14</sup> <https://gender.stat.uz> асосида муаллифлар томонидан таҳлил килинди.

**15 347** nafarni tashkil etgan. Ayollar o‘rtasida 2011-yilda fan doktorligini olganlar soni **469** nafar, 2021-yilda **606** nafarni tashkil qilgan bo‘lsa, fan nomzodini olganlar soni 2011-yilda **2 867** nafar, 2021-yilga kelib **1 750** nafarni tashkil qilgan. Erkaklar o‘rtasida esa 2011-yilda fan doktorligini olganlar soni **1 987** nafar, 2021-yilda **1 876** nafarni tashkil qilgan, fan nomzodini olganlar soni 2011-yilda **6 534** nafar, 2021-yilga kelib **3 812** nafarni tashkil qilgan. Fan, muhandislik, ishlab chiqarish va qurilish sohalari bitiruvchilari orasida ayollar ulushi so‘ngi yillarda ortib 2017-yilda **27** foizdan 2020-yilda **30,1** foizga yetgan.

**Uchinchidan, ayollar ilmiy faoliyatida erkaklarga qaraganda ko‘proq qiyinchiliklarga duch kelmoqda va ilmiy iqtidori bor xotin-qizlar ayrim stereotiplar tufayli o‘zini ilm-fanga bag‘ishlamaydi.**

Xususan, xalqaro darajadagi bitta ilmiy maqolani tayyorlashga 6–9 oygacha vaqt ketadi, buning uchun olimda xotirjam ishlashga sharoit bo‘lishi zarur. Afsuski, chekka hududlarda ayrim o‘zbek oilalarda ayollarga mana shunday sharoitlar yaratib berilmaydi.

Xotin-qizlarning ta’lim olishiga zarur shart-sharoitlarni yaratish, ilm-fan sohasida ayollarning tutgan o‘rnini yanada oshirish bo‘yicha xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rganish xotin-qizlarning ta’limda, ilm-fanda rolini oshirishda qo‘llaniladigan chora-tadbirlar doirasi ancha kengligini ko‘rsatdi.

Jumladan, YIM yuqori bo‘lgan mamlakatlarda **elektron navigator platformalarini yaratish**, malaka olish dasturlarini to‘g‘ridan to‘g‘ri moliyalashtirish va ta’lim to‘g‘risidagi sertifikatlarni taqdim etish kabi kompleks chora-tadbirlar qo‘llaniladi. Shuningdek, ko‘pgina **xorijiy universitetlarda** xodimlarning farzandlari uchun bog‘chalar tashkil qilingan. Bu olima ayollarga turli ijtimoiy masalalarga chalg‘imay, tadqiqot ishini bajarish imkonini beradi.

Germaniyada fan va ta’lim sohalarida **vaucher** usuli keng qo‘llaniladi. Tashkilotlar har yili 20 ga yaqin vaucher olishlari mumkin, bu esa xodimlarni, jumladan, ayollarni o‘qitish xarajatlarining 50 foizini qoplaydi. Xodimlar uchun yillik daromadi past bo‘lgan xodimlar o‘rtasida taqsimlanadigan maxsus **talabalar bonuslari** ham mavjud. Bundan tashqari, qonun ish vaqtida qo‘sishmcha ta’lim kurslariga qatnaydiganlarga daromadning to‘liq saqlanishini kafolatlaydi<sup>15</sup>.

Shuningdek, Germaniyada **900** dan ortiq xalq universitetlari firma va korxonalar uchun xizmat safarlari va sayohatlar ko‘rinishida “**buyurtma bo‘yicha ta’lim**” shaklida kadrlarni qayta tayyorlash kurslari va seminarlarni taklif etadi. Ularda har qanday yoshdagi odam tahsil olishi

*Ayollar ilmiy  
faoliyatida  
erkaklarga  
qaraganda ko‘proq  
qiyinchiliklarga  
duch kelmoqda va  
ilmiy iqtidori bor  
xotin-qizlar ayrim  
stereotiplar tufayli  
o‘zini ilm-fanga  
bag‘ishlamaydi.*

<sup>15</sup> <https://docs.iza.org/dp8454.pdf>

mumkin. Hatto ishlab turgan odamlar, ishsizlar, oila qurban ayollar va erkaklar, shuningdek, pensionerlarga yo‘naltirilgan alohida kurslar ham mavjud.

Xalq universitetlari sharofati bilan har bir Germaniya fuqarosi yangi ixtisoslikni egallashi yoki o‘z sohasi bo‘yicha malakasini mustahkamlashi mumkin. Maxsus hisobvaraqa turli darajadagi sertifikatlarni taqdim etadigan til kurslari, turli darajadagi foydalanuvchilar uchun kompyuter mahoratini o‘rgatish bo‘yicha juda ko‘p takliflar mavjud. Xalq universitetlarini bitirib chiqish orqali Germaniyada har yili 9 milliondan ortiq kishi qo‘s himcha bilim va malakaga ega bo‘ladi.

**Singapurda 45 yoshdan oshgan ishchilar, shu jumladan, ayollar qayta tayyorlash uchun ishlab turgan joylaridan mablag‘lar oladilar va davlat ish beruvchiga xodimni yangi ish funksiyalari bilan ish joyida ushlab turish orqali qilgan xarajatlarini qoplaydi.**

Finlyandiyada katta yoshdagagi ayollar ta’limi rasmiy va norasmiy shakllarda, shuningdek, chet tillarini o‘rganish, axborot texnologiyalari, sport va boshqalar bilan bog‘liq **liberal ta’limni** amalga oshiradi. Liberal ta’lim siyosiy partiylar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan madaniy va diniy tashkilotlar, yozgi universitetlar, xalq oliy maktablari, kattalar ta’lim markazlari, sport mashg‘ulotlari markazlari, universitetning uzluksiz ta’lim markazlari, musiqa maktablari kabi ta’lim birlashmalari faoliyat yuritadi. Finlyandiyada “**ta’lim yutuqlari pasporti**” tushunchasi qo‘llaniladi, unda kattalar, jumladan, katta yoshdagagi ayollar uzluksiz ta’limining barcha natijalari taqdim etiladi.

Daniyada fuqarolik ongini oshirishga qaratilgan ijtimoiy-madaniy o‘quv tadbirlari va kurslar mavjud.

Shvetsiyada “**xalq qurilishi**” (**folkbuildning** – rasmiy malaka hujjatini olish bilan bog‘liq bo‘lmagan xalq ta’limi) tajribasi mavjud bo‘lib, ushbu maktablarning o‘ziga xos xususiyati ma’lum bir o‘quv guruhi kontingen廷ining kasbiy va hayotiy tajribasini hisobga olgan holda kursga qatnashuvchilar ishtirokida dasturlarni ishlab chiqish amaliyoti qo‘llaniladi. Shvetsiyada yuz yildan ortiq vaqtidan beri bu an’ana mavjud – odamlar o‘zlarini qiziqtirgan ma’ruza va darslarda ishtirok etish, madaniy tadbirlarga borish uchun ixtiyoriy ravishda guruhlarga birlashish imkoniyatiga ega<sup>16</sup>.

**Singapurda 45 yoshdan oshgan ishchilar, shu jumladan, ayollar qayta tayyorlash uchun ishlab turgan joylaridan mablag‘lar oladilar va davlat ish beruvchiga xodimni yangi ish funksiyalari bilan ish joyida ushlab turish orqali qilgan xarajatlarini qoplaydi.**

**Janubiy Koreyada** “Umrbod ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq, ta’lim vaziri, vazir o‘rinbosarlari darajasidagi mansabdor shaxslar va ekspertlardan iborat “**Umrbod ta’lim**” qo‘mitasi tashkil etilgan.

<sup>16</sup> [https://studwood.ru/1061630/pedagogika/sovremennye\\_obrazovatelnye\\_praktiki\\_zarubezhnye\\_stranah](https://studwood.ru/1061630/pedagogika/sovremennye_obrazovatelnye_praktiki_zarubezhnye_stranah)

Xitoyda ilmiy tadqiqotlarni moddiy rag‘batlantirish mexanizmi yo‘lga qo‘yilgan, top jurnalda e’lon qilgan har bir maqola uchun xitoylik olim hukumatdan **20–30 ming** dollargacha mukofot oladi. Shuningdek, Xitoy davlati dunyodagi yetakchi ilmiy markazlardan eng nomdor olimlarni mahalliy laboratoriyalar hamda universitetlarga jalb qilgan holda **ilmiy kollaboratsiya** tizimi yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

Hindistonda xotin-qizlarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish maqsadida 1977-yilda “**Ayollar kasbiy ta’limi dasturi**” ishlab chiqilgan va ishga tushirilgan. Mazkur loyiha doirasida ayollar uchun eng mos kasblar aniqlanib, joriy etilgan.

Xotin-qizlarni aniq, texnik va tabiiy fanlarda qiziqishlarini orttirish borasida **Avstriya** tajribasidan misol keltirish mumkin, xotin-qizlarni aniq fanlarga qiziqtirish uchun ularga universitetda qisqa muddatli stajirovka o‘tash taklif etiladi, uzoq muddat uyda o‘tirgan va o‘z sohasida ishlamagan bo‘lsa, unda ularga kasblarini o‘zgartirish imkoniyati beriladi. **Shotlandiya** hukumati 11–14 yoshdagi o‘smirlarga mo‘ljallangan “**Kim bo‘lishni xohlasang, o‘sha bo‘l**” kompaniyasini ishga tushirgan.

Xorijda ayollarning turli uyushmalari tashabbusi bilan ilm-fan bilan shug‘ullanishga yo‘naltirilgan xotin-qizlarni moddiy qo‘llab-quvvatlash keng yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, Amerika Universitet Ayollar Assotsiatsiyasi (**AAUW – American Association of University Women**) tomonidan STEM – (Science, Technology, Engineering, Mathematics) dasturi ishlab chiqilgan bo‘lib, ta’lim, turarjoy, ta’lim sayohatlari va farzandlarni boqish uchun ayollarga stipendiya va grantlar ajratiladi<sup>17</sup>.

1919-yilda tashkil etilgan (**GWI – Graduate Women International**) Xalqaro Oliy Ma’lumotli Ayollar Federatsiyasi ayol olimalarning ilmiy harakatini kuchaytirish uchun grantlar shaklida molivaviy yordam ko‘rsatadi. Ayollar Geoglari Assotsiatsiyasi (**AWG – Association for Women Geoscientists**) geologiya sohasida malaka oshirish uchun bir qator mukofot va stipendiyalarni taqdim etish orqali ayollarni geografiya fanlarini o‘rganishga jalb qiladi. Tashkilot talabalar va aspirantlar, yosh olimlar va o‘qituvchilarni qo‘llab-quvvatlaydi.

1946-yilda tashkil etilgan Yaponiya Universitet Ayollar assotsiatsiyasi (**JAUW**) mamlakatida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun fan magistri yoki undan yuqori darajaga ega bo‘lgan ayol olimalarga grantlar taqdim etadi.

*Hindistonda xotin-qizlarni iqtisodiy faoliyatga jalb qilish maqsadida 1977-yilda “Ayollar kasbiy ta’limi dasturi” ishlab chiqilgan va ishga tushirilgan. Mazkur loyiha doirasida ayollar uchun eng mos kasblar aniqlanib, joriy etilgan.*

<sup>17</sup> Малышева М.М. Естественные и технические науки для женщин в XXI в. / М.М. Малышева // STEM: новые перспективы профессиональной занятости женщин / АНО «Совет по вопросам управления и развития»; под ред. Е.А. Самостиной, сост. Е.В. Кочкина. – Москва, 2016.

2004-yilda AQSHda tashkil etilgan **Schlumberger Foundation Faculty of the Future** dasturi doirasida rivojlanayotgan mamlakatlardan kelgan ayollarga fan, muhandislik va texnologiya bo'yicha doktorantura yoki postdoktoranturada o'qish uchun stipendiyalar taqdim etadi.

**Avstriyada** fan jamg‘armasi dasturi doirasida universitetda tahsil olayotgan ayollarga ilmiy faoliyatlarini davom ettirishlari uchun 6 yilgacha ikki bosqichli moliyalashtirish imkoniyatini taklif qiladi<sup>18</sup>.

**Germaniyada** bolali ayollarga ilmiy faoliyatini davom ettirish uchun maxsus stipendiya (**special scholarship**) va bolalar uchun enagalar ajratiladi<sup>19</sup>.

**Xulosa va takliflar.** Xotin-qizlarning ta’lim olishiga qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratish, ilm-fan sohasida ayollarning o‘rnini yanada oshirish bo‘yicha ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasini o‘rgangan holda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif qilinadi:

*Avstriyada fan  
jamg‘armasi  
dasturi doirasida  
universitetda  
tahsil olayotgan  
ayollarga ilmiy  
faoliyatlarini  
davom ettirishlari  
uchun 6 yilgacha  
ikki bosqichli  
moliyalashhtirish  
imkoniyatini taklif  
qiladi*

1. Kam ta'minlangan xotin-qizlar uchun davlat xizmatlarini saqlab qolgan holda, xususiy xizmat ko'rsatuvchilarni rivojlantirish, xususiy sektorni ta'lim sohasida rivojlantirish, fan va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish.
  2. Yuqori malakali xotin-qizlarning salohiyatini shakllantirishda sanoat ehtiyojlariga mos ravishda o'quv metodologiyasi va dasturlarni ishlab chiqish.
  3. Mamlakatda xotin-qizlarning malakasini oshirish va ilm-fanda ularning ulushini yanada oshirish maqsadida “**Vaucher**” ta'lim<sup>20</sup> tizimini joriy qilish.
  4. Xotin-qizlarni kasbga o'qitish bo'yicha ommaviy ochiq onlayn kurslar ta'limidan (Massive open online courses) keng foydalanish bo'yicha tadqiqotlar olib borish, Khan Academy, Coursera, Udacity, EdX platformalaridan foydalanish va ushbu platformalarga xotin-qizlarni keng jalg qilish.
  5. Xotin-qizlar o'rtasida “**raqamli savodxonlik**” va yumshoq ko'nikmalar (**Soft skills**)ni targ'ib qilish va kengaytirish bo'yicha tadqiqot olib borish, tezlashtirilgan ayol kadrlar tayyorlash tizimini yaratish.
  6. 2030-yilgacha xotin-qizlarda quyidagi bilim va ko'nikmalarni (skills) shakllantirish:

<sup>18</sup> Elise Richter Programme // Austrian Science Fund (FWF) // <https://www.fwf.ac.at/en/research-funding/fwfprogrammes/richter-programme-incl-richter-peek>.

<sup>19</sup> CHRISTIANE NÜSSLIN-VOLHARD-FOUNDATION// Christiane Nüsslein Volhard Stiftung// <http://www.cnv-stiftung.de/en/goals.html>

<sup>20</sup> Хотин-кизлар ўзларининг танланган ОТМларида ўқиши учун ишлатилиши мумкин бўлган ваучерлар шаклида давлат томонидан молиялаштириладиган таъдим тизими.

- tahliliy ko‘nikmalar (**Analytical skills**);
- ko‘p vazifali topshiriqli vazifalarni bajarish ko‘nikmasi (**Multitasking**);
  - aloqa mahorati (**Communication skills**);
  - dasturlash qobiliyatlari (**Programming skills**);
  - dasturiy ta’minot muhandisligi hamda ma’lumotlarni tahlil qilish bo‘yicha bilimlar (**Software Engineering and Data Science**);
  - biznesni tahlil qilish bo‘yicha bilimlar (**Business intelligence**);
  - ma’lumotlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyati (**Ability to analyze data and draw insights**);
  - ijtimoiy media bo‘yicha ilg‘or bilimlar (**Advanced social media knowledge**);
  - mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish bo‘yicha bilimlar (**Customer Relationship Management knowledge**);
- 7. Olima ayollar uchun nufuzli mukofotlar ta’sis etish, grant hamda xorijda stajirovka o‘tash dasturlari, ijtimoiy qo’llab-quvvatlash loyihamalarini yo‘lga qo‘yish.
- 8. Ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishda ham ayollarga ko‘proq e’tibor qaratish.
- 9. Ommaviy axborot vositalarida xotin-qizlarni faqatgina uy bekasi rolida emas, balki ilm-fan, texnika, yangi texnologiyalar sohalarida ko‘rsatish.
- 10. Hududlarda ilm-fan va ilmiy lavozimlarga ko‘proq ayollarni jalg qilish, ayollarni ilmdan voz kechishga majbur qiladigan ijtimoiy streotipler tizimini o‘zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish.
- 11. Norasmiy ta’lim va noformal o‘qish natijalarini tan olish, tasdiqlash va sertifikatsiyalash tizimini joriy etish.
- 12. Moliyalashtirish va rag‘batlantirishning ko‘p kanalli mexanizmlarini rivojlantirish.
- 13. Tug‘uruq ta’tilini taqdim qilish qismida huquqiy asosni takomillashtirish va ish haqi to‘lovlari bo‘yicha tenglikni ta’minalash.
- 14. Tajriba tarqatish xizmatlarini yaratish (**extension service**) – olima xotin-qizlar va talabalarning tadbirkorlar bilan to‘g‘ridan to‘g‘ri ishslash tizimini yo‘lga qo‘yish.
- 15. Ilm-fanda yuksak natijalarga erishib kelayotgan olima ayollarni elga tanitish, ularni muvaffaqiyat etaloniga aylantirish hamda ishlarini keng targ‘ib qilish, O‘zbekistonda ilg‘or olima ayollar reytingini tuzish.
- 16. Qizlarni an’anaviy “**erkaklar kasbi**” deb hisoblangan kasblar bo‘yicha o‘qishga kirishida maqsadli yordam berish kvotalar va rag‘batlantiruvchi stipendiyalar joriy etish.

*Olima ayollar  
uchun nufuzli  
mukofotlar ta’sis  
etish, grant  
hamda xorijda  
stajirovka o‘tash  
dasturlari, ijtimoiy  
qo’llab-quvvatlash  
loyihalarini yo‘lga  
qo‘yish.*

17. Universitetlarda xotin-qizlarning farzandlari uchun bog‘chalar tashkil etish.
18. Hududlarda yosh tadbirkor ayollar uchun professional konsalting xizmatlarini yo‘lga qo‘yish, biznes yuritish, bilimni monetizatsiya qilish sirlarini o‘rgatish.
19. Xotin-qizlar o‘zlarini namoyon etib, jamiyatda munosib o‘rin egallashga imkon beradigan “**sotsial lift**”<sup>21</sup>larni yaratib berish.

<sup>21</sup> Ijtimoiy lift – bu jamiyat yoki ijtimoiy institutning mexanizmi bo‘lib, uning yordamida inson o‘zining ijtimoiy mavqeyini o‘zgartirishi mumkin.

#### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони.
2. Шавкат Мирзиёев. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. – Тошкент: “Ўзбекистон” нациёти, 2021. – 250 Б.
3. Gaskell Jane and Arlene McLaren. *Women and Education: A Canadian Perspective*. Detselig Enterprises, Ltd., PO Box G399, Calgary, Alberta T3A 2G3., 1987.
4. Acker S. *Special series on girls and women in education: Creating careers: Women teachers at work. Curriculum inquiry*. 1992 Jun 1;22(2):141–63.
5. Stromquist N.P. *Women and education in Latin America*. Lynne Rienner Publishers; 1992.
6. Fox M.F. *Women, science, and academia: Graduate education and careers. Gender & Society*. 2001 Oct;15(5):654-66.
7. Hamdan A. *Women and education in Saudi Arabia: Challenges and achievements. International Education Journal*. 2005 Mar;6(1): 42–64.
8. Ногаева А.М., Шупанова Ж.М. «Роль женщин в сфере образования, науки и общества стран Центральной Азии». (2016).
9. Агамова Н.С., Аллахвердян А.Г. Российские женщины в науке и высшей школе: историко-научные и научноведческие аспекты. Вопросы истории естествознания и техники. 2000(1):141-53.
10. Шафранова О.И. *Образование, общественная и профессиональная деятельность женщин Северного Кавказа во второй половине XIX-начале XX в.* – Ставрополь: СГУ, 2004.
11. <https://gender.stat.uz>
12. <https://www.unesco.org/reports/science/2021/en/dataviz/women-share>
13. <https://ru.unesco.org/>
14. <https://docs.iza.org/dp8454.pdf>
15. [https://studwood.ru/1061630/pedagogika/sovremennoye\\_obrazovatelnye\\_praktiki\\_zarubezhnyh\\_stranah](https://studwood.ru/1061630/pedagogika/sovremennoye_obrazovatelnye_praktiki_zarubezhnyh_stranah)
16. Малышева М.М. *Естественные и технические науки для женщин в XXI в.* / М.М. Малышева // STEM: новые перспективы профессиональной занятости женщин / АНО «Совет по вопросам управления и развития»; под ред. Е.А. Самостиной, сост. Е.В. Кочкина. – Москва, 2016.
17. Elise Richter Programme // Austrian Science Fund (FWF) // <https://www.fwf.ac.at/en/research-funding/fwfprogrammes/richter-programme-incl-richter-peek>.
18. CHRISTIANE NÜSSLEIN-VOLHARD-FOUNDATION// Christiane Nüsslein Volhard Stiftung// <http://www.cnv-stiftung.de/en/goals.html>.

# **IJTIMOIY BOSHQARUV СОЦИАЛЬНОЕ УПРАВЛЕНИЕ SOCIAL MANAGEMENT**

*elektron ilmiy jurnal*  
*электронный научный журнал*  
*electronic scientific journal*

**1/2022**

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2021-yil 17-iyundagi 1190-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma” berilgan.

*Jurnal mahalla va oila institutlarini mustahkamlash hamda gender tengligiga oid barcha ijtimoiy masalalar sohasida fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar va innovatsion g‘oyalarni tatbiq etishga ixtisoslashgan nashrdir.*

Журналу выдано «Свидетельство о государственной регистрации средств массовой информации» № 1190 Управлением печати и информации города Ташкент от 17 июня 2021 года.

*Настоящий журнал – издание, специализирующееся на применении междисциплинарных, фундаментальных научно-практических исследований и инновационных идей во всех социальных вопросах, касающихся укрепления институтов махалли, семьи и гендерного равенства.*

The journal was issued «Certificate of state registration of mass media» No.1190 by the Press and Information Department of Tashkent city dated June 17, 2021.

*This journal is a publication specializing in the application of interdisciplinary, fundamental scientific and practical researches and innovative ideas in all social issues related to strengthening the institutions of makhalla, family and gender equality.*

---

**MUASSIS:**  
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti

**JURNAL TAHRIRIYATI:**

Bosh muharrir: **Egamberdiyeva N.**  
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Musurmanova A.**  
Mas’ul kotib: **Mavlonov B.**  
Muharrirlar: **Yunusov U., Nomozova O‘.,**  
**Razzakova N., Sobirova E.**  
**Jabborov U.**  
Sahifalovchi: **Umaraliyev Z.**  
Dizaynerlar: **Abdullayev L., Sobirov F.**  
Web dizayner: **Yakubov O., Alimova Z.**

*Jurnaldagи materiallardan foydalanilganda mualliflik huquqini e’tiborga olgan  
holda jurnalga havola berilishi shart.*

*Jurnalga kiritilgan maqola materiallari mazmuni mualliflarning shaxsiy  
ilmiy-nazariy yondashuvi va qarashi sifatida talqin qilinadi.*



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.  
Bosishga ruxsat etildi: 12.02.2022.  
“Times New Roman” garniturasi. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16  
Nashriyot bosma tabog‘i 7,8.  
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,  
M.Ismoiliy ko‘chasi 1-G uy.

“SANBOOK EXCLUSIVE PRINT” XK bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent, Yangihayot tumani, 5-qurilish hududi, 9-uy.